XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 19-fevral VII-5-9-7-103-K/25 Samarqand tumani

Samarqand tumanida 2025-yilda suv resurslaridan foydalanganlik va yer qa’ridan foydalanganlik uchun bazaviy soliq stavkalarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “Soliq va budjet siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1014-sonli Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445, 452-moddalariga kiritilgan o‘zgartirishlarga, shuningdek, tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i Sh.Sharipovning 2025-yil 10-yanvardagi P-00451-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Samarqand tumani Kengashining yettinchi chaqiriq beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “Soliq va budjet siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1014-sonli Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445, 452-moddalariga kiritilgan o‘zgartirishlar ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman soliq inspeksiyasi hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda tuman hokimligining 2025-yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozidan kelib chiqib, tuman bo‘yicha 2025-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

3. 2025-yil uchun Samarqand tumani hududida yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi **1-ilovaga** hamda suv solig‘i stavkasi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i F.Ganiyev, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (F.Misirov), tuman soliq inspeksiyasi (Sh.Sharipov)lar birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (B.Xonkeldiyev), “Gulobod tongi” gazetasi (S.Narzullayeva)larga ushbu qaror ommaviy axborot vositalarida, tuman hokimligining rasmiy veb-saytida hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Mazkur qaror bajarilishini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari F.Ganiyevga, nazorat qilish xalq deputatlari Samarqand tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi Z.Zaynetdinov zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi

SHARIPOV BAXTIYOR MURODKULOVICH

Xalq deputatlari Samarqand tumani Kengashining
2025-yil 19-fevraldagi
VII-5-9-7-103-K/25 -son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 445-moddasiga muvofiq 2025 yilda Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffisiyentlar
(suv hajmiga nisbatan)

T/R	Tuman nomi	Yer usti suv manbasi			Yer osti suv manbasi		
		Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2-bandda ko‘rsatilganlar mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’yektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar	**Avtotransport vositalarini yuvish**	**Alkogolsiz ichimliklarni hamda (pivo va vinodan tashqari) alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish**	**Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2-bandda ko‘rsatilganlar mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’yektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar**	**Avtotransport vositalarini yuvish**	**Alkogolsiz ichimliklarni hamda (pivo va vinodan tashqari) alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish**
1	Samarkand tumani	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20

Izoh: O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 445-moddasiga muvofiq "Belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun" soliq stavkalari mutlaq miqdorda bir kub metr uchun soliq stavkalariga xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tomonidan qo‘llanilayotgan oshiruvchi va kamaytiruvchi koeffisiyentlar mazkur moddaning 2-3-bandlari, shuningdek ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlangan yirik soliq to‘lovchilarga tatbiq etilmasligi belgilab qo‘yilsin.

Xalq deputatlari Samarqand tumani Kengashining
2025-yil 19-fevraldagi
VII-5-9-7-103-K/25 -son qaroriga
2-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 452-moddasiga muvofiq 2025-yilda Yer qa’ridan foydalanganlik noruda qurilish materiallari uchun (syement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffisiyentlar

T/R	Tuman nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (syement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepisa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi qurilish qumi, qumtoshlar
1	Samarkand tumani	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2	1,3